

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

TURAYEVA DILFUZA DAMINOVNA

**O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA TASVIRIY BIRLIKLAR TIPOLOGIYASI
VA O‘ZARO TARJIMASI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Turayeva Dilfuza Daminovna

O'zbek va rus tillarida tasviriy birliklar tipologiyasi va o'zaro tarjimasi..... 3

Тураева Дилфуза Даминовна

Типология описательных единиц и их перевод в узбекском и русском языках 23

Turaeva Dilfuza Daminovna

Typology and cross-translation of descriptive units in Uzbek and Russian languages 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

TURAYEVA DILFUZA DAMINOVNA

**O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA TASVIRIY BIRLIKLAR TIPOLOGIYASI
VA O‘ZARO TARJIMASI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.4.PhD/Fil2127 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Kiselyov Dmitriy Anatolyevich**
filologiya fanlari doktori, dotsent


Qulmamatov Do'smamat Sattarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «15» may soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (297 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «02» may kuni tarqatildi.
(2023-yil «02» may dagi 23-16 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.M.Jo'rayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida hozirgi zamonimizning asosiy belgisi hisoblanayotgan globallashuv iqtisodiy jihatdan ushbu jarayonga integrallashishni talab qilsa, ma'naviy aspektda ushbu fenomendan cheklanish har bir millatning o'zligini saqlab qolishning yagona sharti bo'lib qolayotganligiga lingvistik aspektda amaliy jihatdan alohida e'tibor qaratilmoqda. Til xalqlar va millatlar o'tmishi, mentaliteti va turmush tarzidagi o'ziga xosliklarni yaqqol aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa bo'lib, til hodisalarining izchil ochib berilishi, vositalarning nutqda singdirilishida samaradorlikni sezilarli darajada oshirib qolmasdan, muloqot vositasining ontologik tabiatini namoyon etadi. Globallashuvning bilvosita salbiy oqibatlarini idrok etib, ularni bartaraf etish maqsadida tillar rivoji, tilshunoslik masalalarining ochib berilishi, tilni qo'llash va uning tarjimasini jarayonida lingvomadaniy o'ziga xosliklarni e'tiborga olish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida til birliklari xususida alohida to'xtalib, ularning fonetik o'ziga xosliklari, leksik imkoniyati, semantik tarkibi, morfologik maqomi, gapdagi sintaktik vazifasi, ularning til tizimidagi o'rni va vazifasi tadqiqiga doir keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan. Zamonaviy tilshunoslikda hozirgi o'zbek va rus tilidagi tasviriy birliklarning semantik va kontekstual xususiyatlarini tahlil qilishda tilga yaxlit sistema sifatida nazariy munosabatda bo'lish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu til fenomenlarining lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligi muammolari, avvalo, turli tillardagi birliklarning o'zaro adekvat tarjimasini uchun xos semantik, qiyosiy tahlillarni kuchaytirish, muqobil til birliklarining lisoniy qiymatini aniqlash hamda natijalarni leksikografik talqinlarda to'g'ri va xolis aks ettirish zaruratini asoslashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda respublikamizda ilm-fanni rivojlantirish maqsadida tadqiqotchilar oldiga qator vazifalar qo'yilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida o'zbek tilining mavqeini jahonning eng rivojlangan tillari darajasiga ko'tarish, o'zbek tilidan xorijiy tillarga tarjima matnlarning sifat darajasini oshirish uchun tasviriy birliklarning o'zbek va rus tillaridagi qiyosiy tadqiqi, ushbu vositalar funktsional va semantik xususiyatlarini aniqlash, ularning leksikografik talqinidagi kamchiliklarni bartaraf etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mustaqillik davrida mamlakatimizda o'zbek milliy modeliga mos keluvchi ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirishning zamonaviy talablar darajasidagi asosiy tamoyillari ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"¹. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, bu nutqiy muloqotning ajralmas uzvi sifatida xizmat qiluvchi, uning betakror jozibasini ko'rsatishga qaratilgan izlanishlarni ham faollashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини tubdan ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5850-сон Фармони. Манба: <http://lex.uz/docs/4561730>

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga bevosita va bilvosita xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida bu muammo bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, tilshunos olimlar F.Fortunatov, V.Skalichka, A.Vorstnikov², ushbu til birliklari xususida to'xtalib, ularning fonetik va morfologik o'ziga xosliklarini tahlil qilishgan. Biroq, mavjud tadqiqotlarda tasviriy birliklarning taqlidlardan farqli o'laroq atash ma'nosi mavjudligiga, ushbu guruhdagi vositalar o'zaro ma'no darajalanishini hosil qilishiga ahamiyat qaratilmagan. Tasviriy birliklarning milliy-madaniy, pragmatik, semantik va kontekstual xususiyatlari o'rganilmagan. Ushbu dissertatsiyada mazkur jihatlar til birliklarining semantik va vazifaviy o'ziga xosliklari muammosi sifatida ilmiy tekshiriladi.

O'zbek tilshunosligida tasviriy birliklar dastlab undov so'zlar, so'ng taqlid so'zlar doirasida tadqiq qilingan. Bu borada tilshunos olim R.Qo'ng'urovning "O'zbek tilida tasviriy so'zlar"³ monografiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Unda obrazli ifodalar, ya'ni, tasviriy birliklarning taqlid so'zlardan ajratilishi lozimligi, ular orasidagi semantik va vazifaviy tafovutlar haqida so'z boradi. Turkiy tillar doirasida ushbu vositalar tilshunos olimlar A.Kononov, N.Baskakov, M.Yunusalievlar⁴ tomonidan atroflicha tadqiq qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasining "O'zbek tilining struktur va sotsiopragmatik tadqiqi" bo'yicha rejalashtirgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi zamon o'zbek va rus tilidagi tasviriy birliklarning tipologik xususiyatlari, doimiy qo'llanish me'yorini ko'rsatuvchi

² Bu haqida qarang: Fortunatov. Ф. Сравнительное языковедение. Хрестоматия по истории языкознания XIX—XX веков. М., Учпедгиз, 1956; Скаличка В. Асимметрический дуализм языковых единиц // Пражский лингвистический кружок. – М., 1967; Востриков А. Теория познания диалектического материализма. М., 1965;

³ Кўнгуоров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. - Тошкент: "Фан", 1966

⁴Бу haqida qarang : Кононов А. Грамматика современного узбекского литературного языка, М.-Л., 1960; Баскаков. Н. Каракалпакский язык, II – М., 1952; Юнусалиев. М.Киргизская лексикология – Фрунзе, 1959.

semantik va kontekstual tavsifini berish, tarjima muammolarini yoritish va leksikografik talqinidagi o'ziga xosliklarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek va rus tilidagi tasviriy birliklarning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish va semantik tizmiy munosabatlarini ochib berish;

o'zbek va rus tilidagi birliklarni atash semasiga, ma'nodoshlik va zid ma'nolilik xususiyatlariga ko'ra tartiblash, ushbu vositalarning taqldlardan farqini semantik belgilariga asoslanib isbotlash;

tartibga solingan tasviriy birliklarning rus tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan rus tiliga tarjimalarini tahlil qilish, lug'atlarda berilishini o'rganish hamda tegishli tavsiyalarni berish;

tasviriy birliklar tarjimalarining muvaffaqiyatli tomonlarini aniqlash, tillararo tafovutlar sabab yuzaga chiqqan nuqson va chalkashlik hamda noaniqliklarni muayyanlashtirish hamda ular o'rnida muqobil variantdoshlar taklif qilish;

tasviriy birliklar olamning rus va o'zbek milliy lisoniy tasvirida tutgan o'rnini aniqlash, ikki tildagi tasviriy birliklar orasida madaniy realiyalarni topish va ularning tarjimasini masalalarini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida zamonaviy o'zbek va rus tilidagi tasviriy birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti zamonaviy o'zbek va rus tilidagi tasviriy birliklarning semantik va tipologik-struktur maqomi hamda o'zaro tarjimada berish tamoyillari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, bayon, leksikografik, transpozitiv, distributiv, semantik-stilistik izoh, leksik-semantik (mantiqiy-semantik) hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tasviriy birliklarning funksional imkoniyatlari, kommunikativ va derivativ xarakteri, matn rivoji doirasida voqelanishi va matn hosil qilish qonuniyatlari bilan belgilanishi, mazkur jarayon natijasi sifatida tasviriy birlikning ikkilamchi mahsulot ekanligi asoslangan;

tasviriy birliklarning birma'nolilik va ko'pma'noliligi, neytral va emotsionalligi, kontekstga bog'liq va bog'liq emasligida namoyon bo'ladigan ichki qarama-qarshiliklarga ularning turli matnlar doirasida kontekstual va derivatsion mazmun kasb etish, turli kontekstlarda ta'riflanishga ehtiyoj sezish va sezmaslik tabiati sabab bo'lishi aniqlangan;

milliy-madaniy manzarani ifodalashda millatga xos bo'lgan maxsus tasviriy birliklar, realiyalar tarjimasida transliteratsiya, eksplikatsiya, generalizatsiya, kompensatsiya usullarining birlamchi qiymat kasb etishi dalillangan;

tasviriy birliklarning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari o'zbek tili milliy korpusining leksik-semantik munosabatdosh birliklar bazasini yaratish, milliy korpus asosida parallel tillar korpusini takomillashtirish bilan shartlanganligi mazkur lisoniy birliklarni aniqlash orqali parallel korpus lingvistik ta'minotini yaratish imkoniyatining ustuvorligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tasviriy birliklar va ularning rus tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan rus tiliga badiiy matnlar tarjimasiga doir xulosalar o'zbek tilshunosligi, xususan,

terminologiya sohasini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishi, sohaga doir darslik va qo‘llanmalar, terminologik lug‘atlarning takomillashuviga xizmat qilishi asoslangan;

sohaviy leksika bo‘yicha turli lug‘atlar tuzish, mavjud terminologik lug‘atlarni takomillashtirish, ularda tasviriy birliklarni leksikografik talqin qilish hamda lug‘at tuzish jarayoni bilan bog‘liq muammolar echimiga xizmat qilishi dalillangan;

rus va o‘zbek tillari tasviriy birliklari lug‘atini tuzish tamoyillari ishlab chiqilgan va shu asosda tasviriy birliklar lug‘ati nashrga tayyorlangan, maktab o‘quvchilari, oliy o‘quv yurti talabalari uchun terminologik lug‘atlar tuzishda, rus va o‘zbek tili leksikasi, qiyosiy tipologiya, tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha nazariy hamda amaliy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda zarur manba bo‘la olishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo‘yilganligi, olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, tadqiqotda zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslik yutuqlaridan kelib chiqqan holda chiqarilgan xulosalarning qiyosiy-tipologik, bayon, leksikografik, transpozitiv, distributiv, semantik-stilistik izoh, leksik-semantik (mantiqiy-semantik) va statistik taxlil usullari orqali dalillanganligi bilan belgilanadi; nazariy fikr va natijalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan xulosalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati unda obrazli ifodalarning semantik-struktur-tipologik tahlil qilishning kompleks metodikasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi; tadqiqot natijalari rus va o‘zbek tilidagi olamning milliy lisoniy tasviri elementlarini lingvotipologik jihatdan o‘rganish bo‘yicha izlanish olib boruvchilar uchun muhim ma‘lumotlar beradi va kelgusidagi tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan oliy ta‘lim muassasalarining filologik yo‘nalishlari talabalariga “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”; “Chog‘ishtirma tilshunoslik”, “Tarjimashunoslik” fanlaridan darslik va qo‘llanmalar yaratishda; lingvomadaniy tahlillar o‘tkazishda va lingvomadaniyatshunoslik bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va rus tillarida tasviriy birliklar tipologiyasi va o‘zaro tarjimasini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tasviriy birliklarning funksional imkoniyatlari, kommunikativ va derivativ xarakteri, matn rivoji doirasida voqelanishi va matn hosil qilish qonuniyatlari bilan belgilanishi, mazkur jarayon natijasi sifatida tasviriy birlikning ikkilamchi mahsulot ekanligiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi”; FA-F1-G007 “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” mavzusidagi fundamental va ilmiy-amaliy loyihalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 17-yanvardagi №17.01/198-son ma‘lumotnomasi). Natijada tasviriy

birliklar tarjimalarning muvaffaqiyatli tomonlarini aniqlash, tillararo tafovutlar milliy xususiyatlari va jihatlarini ochib berishga erishildi;

tasviriy birliklarning birma'nolilik va ko'pma'noliligi, neytral va emotsionalligi, kontekstga bog'liq va bog'liq emasligida namoyon bo'ladigan ichki qarama-qarshiliklarga ularning turli matnlar doirasida kontekstual va derivatsion mazmun kasb etish, turli kontekstlarda ta'riflanishga ehtiyoj sezish va sezmaslik tabiati sabab bo'lishiga oid nazariy xulosalardan 2018-2019 yillarda bajarilgan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Qashqadaryo viloyat bo'limida amalga oshirilgan 54-10/104 raqamli "Mitti yulduz" jilolari yoxud "Abdulla Oripov izdoshlari huzurida" mavzusidagi loyiha ishini amalga oshirishda muhim nazariy manba sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Qashqadaryo viloyat bo'limining 2022-yil 25-noyabrdagi №92-son ma'lumotnomasi). Natijada badiiy matnlarning rus tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan rus tiliga tasviriy birliklar tarjimasi amaliyotini yangi sifat darajasiga ko'tarishga va tarjimaga doir tahrir dasturlarini ishlab chiqishga erishildi;

tasviriy birliklarning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, o'zbek tili milliy korpusining leksik-semantik munosabatdosh birliklar bazasini yaratish, milliy korpus asosida parallel tillar korpusini takomillashtirish bilan shartlanganligi mazkur lisoniy birliklarni aniqlash orqali parallel korpus lingvistik ta'minotini yaratish imkoniyatining ustuvorligi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining "Fayzli kun" nomli dasturi senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 17-noyabrdagi №17-05/313-son ma'lumotnomasi). Natijasida ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga, ko'rsatuvning ilmiy-ommaboplik xususiyati oshirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta maqola, ulardan, 1 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat b'lib, umumiy hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “**Olamning lisoniy tasviri va til sistemasida tasviriy soʻzlarning oʻrni**” deb nomlangan va uch fasldan tarkib topgan. Dastlabki faslda obrazli ifodalarning soʻz turkumlari va til tizimidagi oʻrni haqida fikr yuritiladi.

Turli qurilishga ega boʻlgan tillar muloqot vositasi sifatida umumiy baxolanadigan boʻlsa, obrazli soʻzlar nutqning ifodaviyligi va emotivlik darajasini oshirishga xizmat qiladi deyish mumkin. Ayni shu semantik vazifa turli qurilishga ega boʻlgan tillarda tasviriy birliklarni parallel chiziqqa qoʻyadi. Shunga qaramasdan, tasviriy soʻzlarning morfologik oʻrnini aniqlash koʻp tillarda muammoligicha qolmoqda. Obrazli soʻzlarni mustaqil soʻz turkumi sifatida eʼtirof etib boʻlmazligi tilshunoslar tomonidan bot-bot isbotlangan fakt. Biroq mustaqil turkum maqomi boʻlmasa-da, ushbu vositalarni taqlidlar sirasiga kiritishni ham har tomonlama asoslangan xulosalardan biri deb boʻlmaydi. Aytish joizki, tasviriy birliklarning nutqdagi voqelanish darajasi taqlidlardan ancha yuqori darajada, va u bilan kesishadigan holatlari boʻlsa-da, qamrovi ushbu turkum doirasidan tashqariga chiqib ham ketadi. Ushbu holat ham ogʻzaki, ham yozma nutqqa birdek xos boʻlib bunday faol aktsidentsiya obrazli soʻzlarning morfologik identifikatsiyasi masalasini yanada faollashtiradi.

“Uzoq vaqt davomida taqlidlar (ular sirasida tasviriy birliklar ham) va undovlar birgalikda tadqiq etildi. Yaqin-yaqinda ular alohida, bir-biriga boqʻliq boʻlmagan leksik-semantik guruhlariga ajratila boshladi”⁵.


Barcha tillar – hatto bir biridan keskin farq qiluvchi tillar ham aslida bir biriga juda yaqin turadi. Ularning oʻziga hosligi esa faqatgina boshqa tillar bilan qiyoslaganda namoyon boʻladi. Jumladan, obrazli soʻzlar turli sistemali tillarda quyidagi ayni bir xil fonetik xususiyat va tuzilishga ega:




⁵ Алиева С. К проблеме семантического статуса междометий и звукоподражательных слов в русском и кумыкском языках // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 2-2. – С. 26.

Tasviriy birliklar sirasida o‘zlashma so‘zlar mavjud emas. Har qanday tilda obrazli so‘zlar sof milliy etimologiyaga ega. Bunga sabab shundaki, tasviriy so‘zlar dastavval xalq tilida shakllanadi. Ular so‘zlovchilar uchun eng qulay, tushunarli tovush qolipiga ega bo‘ladi.

Qolaversa, tasviriy so‘zlarning yana bir jihati ularning fonetik sathda boshqa turkum so‘zlaridan yaqqol ajralib turishiga sabab bo‘ladi. Grammatik qurilishi, poetika va ekspressivlik darajasidan qat’i nazar barcha tillarda obrazli so‘zlar quyidagi mohiyatlarni ifodalaydi va bularni obrazli so‘zlarning semantik etimologiyasi deyish mumkin:



Morfologik sathda rus va o‘zbek tilidagi so‘zlar quyidagi umumiy xususiyatlarga ega.



Tasviriy birlikning morfologik tasnifi olimlar orasida semantik xususiyatlari nuqtai nazaridan bahslarga sabab bo‘lmoqda. Zero, ushbu so‘zlar atash ma’nosi fonida ot xususiyatiga ega, deya faraz qilinadi. O‘zining ifoda semasi asosida esa sifat turkumi xossalarni namoyon qiladi. Derivatsion xususiyati sababli ushbu so‘zlar ko‘plab holat fe‘llari shakllanishiga asos bo‘lgan. Shu sababdan, obrazli

sozlarni mustaqil soʻz turkumlaridan mutlaq begonalashtirish, ularni bunday maqomga loyiq koʻrmaslik birliklarning semantik-funksional xossalarini beeʻtibor qoldirishdek koʻrinadi. Shu sababdan, olimlar tasviriy birliklar, shu bilan birga, taqlid va undovlarning ham estetik xususiyatlarini tadqiq qilishga urgʻu berishadi.

Bobning keyingi fasllarida oʻzbek tilida obrazli soʻzlarning grammatik imkoniyatlari va semantik xususiyatlari haqida soʻz boradi.

Oʻzbek tilshunosligida obrazli soʻzlarning morfologik tasnifi masalasiga kamdan-kam murojaat qilingan. Aksariyat hollarda ushbu vositalar taqlid soʻzlarning bir turi sifatida kategoriyalanadi. Yaʼni taqlid soʻz – inson, hayvon va boshqa narsalarning tovushini, harakat-holat obrazini taqlidan ifodalovchi soʻz: *qars-qurs, tars, miyov; lip-lip, lov-lov, gʻiz-gʻiz va b.*

Taqlid soʻzlarning ikki turi farqlanadi: 1) tovushga taqlid soʻz (q.)\ 2) obrazga taqlid soʻz. Biroq ushbu ikki guruh – taqlidiy va tasviriy birliklar orasida katta tafovut bor. Taqlidiy birliklar inson nutqida bevosita koʻchirish, oʻxshatish natijasida yuzaga kelgan. Ular maʼlum bir tabiiy yoki mexanik hodisaning, shovqinning inson nutqiga aynan kochgan shaklidir. Maʼlumki, “tushunchani anglatish jihatidan soʻzlar bir-birlaridan farq qiladilar. Bir xil soʻzlar borki, ular nominativlik funksiyasini bajarib, predmetlik maʼnosi bilan koʻrinadi, ikkinchi bir xil soʻzlar esa umumiy funksional va realitiv maʼnoda koʻrinadi. Bu haqda tilshunos olim R.Qoʻngʻurov shunday deydi: “genetik tomondan obrazli soʻzlar koʻproq mustaqil soʻzlarga yaqin turadi. Obrazli soʻzlardagi tovush komplekslari bilan ular tasvirlayotgan hodisalar oʻrtasida aloqa yoʻq darajada. Tovushga taqlid soʻzlarda esa tovush komplekslari tabiatdagi tovushlarning shartlicha kopiyasi sifatida maydonga keladi. Ular oʻzi anglatgan hodisalar bilan bevosita bogʻlangan. Yaʼni *lapang-lapang, taltang-taltang, lip-lip, gʻilt-gʻilt* kabi obrazli soʻzlarning tovush kompleksi bilan anglatgan maʼnosi oʻrtasidagi yaqinlik *shart-shurt, gʻirch-gʻirch, chiq-chiq, tiq-tiq* kabi tovushga taqlid soʻzlar bilan ular anglatgan maʼnosi oʻrtasidagi yaqinlikdan tubdan farq qiladi. Tovushga taqlid soʻzlar etmoq, demoq kabi yordamchi feʼllarning har ikkalasi bilan ham birika oladi (oʻringa qarab). Obrazli soʻzlar esa faqat *etmoq* yordamchi feʼli bilan birikadi.⁶

Quyida taqlidiy va tsviriy birliklar namunalarini koʻzdan kechiramiz:

| Taqlid soʻzlar | | Obrazli soʻzlar | |
|----------------------|-----------------------|--------------------------|----------------------|
| <i>ing-ing</i> | <i>bagʻira-bugʻur</i> | <i>yalt-yalt</i> | <i>lip-lip</i> |
| <i>jiring-jiring</i> | <i>bigʻ-bigʻ</i> | <i>yaltir-yaltir</i> | <i>lok-lok</i> |
| <i>ivir-shivir</i> | <i>bidir-bidir</i> | <i>yalt-yult</i> | <i>liqangz</i> |
| <i>juvur-juvur</i> | <i>biqir-biqir</i> | <i>shingila-shingila</i> | <i>loʻppa-loʻppa</i> |

Umuman olganda, oʻzbek tilshunosligida tasviriy birliklarni taqlidning bir turi sifatida⁷ va alohida tip sifatida⁸ baholash holatlari mavjud.

Tasviriy birliklar nutqda qoʻllana olish imkoniyatiga koʻra taqliddan koʻra faolroq. Taqlid soʻzlar faqat tovushni ifodalaydi, koʻchma maʼnoda ham faqat biror

⁶Кўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: “Фан”, 1966. – Б. 90.

⁷ Bu haqida qarang : Кононов А. Грамматика современного узбекского литературного языка, М.—Л., 1960; Баскаков. Н. Каракалпакский язык, II – М., 1952, – 239 с.

⁸ Bu haqida qarang : Юнусалиев. М. Киргизская лексикология – Фрунзе, 1959, – 152 с.

shovqinni nomlab kela oladi. Tasviriy birliklar esa nafaqat holat ko‘rinishini, balki ko‘chma ma’noda inson xarakteri, biror hodisaga insonning munosabatini anglatuvchi vosita bo‘la oladi. O‘z-o‘zidan, bu tasviriy birliklarning nutqda faolroq bo‘lishini, ularning birikuv imkoniyatlari taqlidlardan kengroq ekanligini ifodalaydi.

Xususan, tasviriy birliklar gapda hech qanday affiksial o‘zgarishsiz boshlang‘ich shaklida ham qo‘llana oladi. Masalan: *Bir payt do‘lanazor adog‘idagi pastak guvalak devor osha ikki-uch qizaloq chehralari lip-lip o‘ta boshladi* (X.Do‘stmuhammad, “Yolg‘iz”).

Obrazli so‘zlar atash xususiyatiga egaligi bilan oraliq turkumdagi undov va taqlidlardan ajralib turadi.

Semantik funksiyasiga ko‘ra tasviriy birliklarni nutqda ikkinchi darajali vazifani bajaruvchi vosita sifatida qarash mumkin. Aytish joizki, bir qarashda tasviriy birliklarni sifat so‘z turkumiga oid deyish mumkindek. Shunga ko‘ra, ushbu vositalarni avvalo, semantik bo‘yoqdorligiga ko‘ra ijobiy, salbiy va mo‘‘tadil guruhlarga ajratish mumkin, bunday tasnif guruhdagi deyarli barcha elementlarni qamrab oladi.

| Ijobiy | Neytral | Salbiy |
|----------------------|--------------------|----------------------|
| <i>yalt-yalt</i> | <i>chim-chim</i> | <i>alang-jalang2</i> |
| <i>charaq-charaq</i> | <i>chosh-chosh</i> | <i>dag‘-dag‘</i> |
| <i>hilp-hilp</i> | <i>jim-jim</i> | <i>g‘imir-g‘imir</i> |

Yuqoridagi vositalar grammatik jihatda moslashuvchanligi, qo‘llanishiga ko‘ra faolligi, ma’no turlarining bir til doirada farq qilishi bilan ajralib turadi. Shunday ekan, ularni ma’lum bir semantik qolip asosida tartiblab bo‘lmaydi.

O‘zining ma’nodoshlik, zid ma’nolilik xarakteristikasiga ko‘ra, tasviriy birliklar taqlidiy so‘zlarga nisbatan ko‘proq o‘zaro aloqadorlikni tashkil qiluvchi sistema sifatida namoyon bo‘ladi. Tasviriy so‘zlarning sinonimik munosabatlarini quyidagi misollar yordamida dalillarsh mumkin.

| O‘zaro sinonim tasviriy birliklar | |
|-----------------------------------|---------------------|
| <i>qimir-qimir</i> | <i>g‘imir-simir</i> |
| <i>g‘uj-g‘uj</i> | <i>vij-vij</i> |
| <i>yalt-yalt</i> | <i>yilt-yilt</i> |

Shuningdek, tasviriy birliklar bir-biriga zid ma’noli bo‘lishi ham mumkin va buni quyidagi misollar yaqqol namoyon etadi

| O‘zaro zid ma’noli tasviriy birliklar | |
|---------------------------------------|--------------------|
| <i>milt-milt</i> | <i>lov-lov</i> |
| <i>g‘imir-simir</i> | <i>shart-shurt</i> |
| <i>dikong-dikong</i> | <i>lip-lip</i> |

Obrazli so‘zlar biror voqea hodisaning inson vizual jihatdan qanday qabul qilgani va tilda qay yo‘sinda ifodalashini namoyon etadi. Vizual sezgi va nutq orasida esa ushbu hodisaning inson ongida anglashilishi yotadi, zero inson tovush va shovqinsiz biror hodisani nutqqa ko‘chirish chog‘ida idrok eng muhim bosqich. Demak, tasviriy so‘z shakllanishida, nafaqat, vizual sezgi va til, balki ong ham

ishtirok etishi shart. Shu sababdan obrazli soʻzlarni *tasavvuriy soʻzlar* deb atash oʻrinli.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Oʻzbek va rus tilidagi tasviriy birliklarning oʻzaro badiiy tarjimai”** deb nomlanadi. Ushbu bobda tasviriy birliklarning badiiy matndagi tarjimai muammolari, oʻzbek tilidagi tasviriy birliklarning rus tiliga tarjimai hamda rus tilidagi tasviriy birliklarning oʻzbek tiliga tarjimai haqida soʻz boradi.

Oʻzbek tarjima maktabi uzoq yillik tarixga, keng tajribaga asoslanadi. Fors, arab tilidan tarjimalar turkiylarga sharq adabiyoti va falsafasini tanitgan boʻlsa, Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Usmon Nosir kabi mutarjimlar sharofati ila millat gʻarb adabiyoti bilan tanishdi.

Oʻtgan asr boshlarida shakllana boshlagan tarjimashunoslik, tarjima nazariyasi kabi fanlar 50-yillardan soʻng A.Muxtor, J.Sharipov, Gʻ.Salomov, N.Vladimirova, N.Komilov, K.Joʻraev, T.Joʻralar tomonidan ilmiy asoslab berildi. Natijada, tarjima ishiga, shu jumladan, badiiy tarjimaga uch asosiy usulda yondashish mumkinligi isbotlandi. Filologik, lingvistik, kontekstual yoki erkin tarjima har biri oʻz oldiga qoʻyilgan maqsadlariga koʻra bir biridan farqlanadi.

Maʼlumki, filologik tarjimada tarjimon eʼtibor markazida asliyat matni boʻladi.⁹ Bu oʻquvchiga axborotni etkazishni maqsad qilgan primitiv tarjima deyish mumkin. Badiiy tarjimaga filologik nuqtai nazardan yondashish matnning sotsiomadaniy, kommunikativ xususiyatlariga muayyan darajada putur etkazadi. Fonetik tarjimada bir tilda mavjud boʻlib boshqasida boʻlmagan tushunchalarni ifodalovchi vositalarni oʻgirish muammolidir. Flektiv xarakterga ega har qanday tillardek rus tili obrazli soʻzlarga boy emas. Taqlidiy va tasviriy soʻzlar umumlashgan holda undovlar sirasiga kiritiladi. Ularning soni ham oʻzbek tilidagidan ancha kam. Shunday ekan, filologik tarjimada rus tilida muqobiliga ega boʻlmagan tasviriy birliklar tushirib qoldirilishi yoki undanda qoʻpol uslubiy xato sifatida transliteratsiya shaklida tarjima qilinadi. Tarjimaning ikkinchi turi lingvistik tarjima esa yuqoridagi yondashuvdan farqli oʻlaroq asliyat matni umumiy maʼnosini saqlab qolgan holda uning oʻziga xosliklarini ham inobatga olishni talab etadi. Lingvistik usulda tarjima qilingan matnlarda obrazli soʻzlar kabi oʻziga xos elementlar asosan boshqa soʻz turkumi shaklida, yoki matnda mavjud boʻlgan boshqa bir sʻz ifoda maʼnosi tarkibiga singdiriladi.

Bugungi kunda tobora ommalashib borayotgan tarjima turlaridan yana biri kontekstual tarjima, yaʼni erkin tarjimadir. Tarjimon bunday yondashuvda asliyat matni mazmunidan kelib chiqqan holda unga qoʻshimchalar kiritishi mumkin. Biroq, erkin tarjima degani butun bir gap, jumla yoki replikani asossiz qoʻshish degani emas. Matnga qoʻshiladigan soʻz yoki boshqa tur element vaziyat va mazmun taqazosiga koʻra boʻlishi lozim. Masalan, rus tilidan oʻzbek tiliga oʻgirilgan badiiy asarlarda gapda baʼzi aniqlovchilar yoki tasviriy birliklar qoʻshilishi matnning umumiy mazmuniga zarar etkazmaydi, tarjimaning esa badiiy-estetik qiymatini oshiradi.¹⁰

⁹ Яценко М. Филологический перевод: проблемы и перспективы//Studia Litterarum №1. – Санкт-Петербург, 2019 – с.18

¹⁰ Прохоров Ю.Е. Действительность. Текст. Дискурс. - М.: Флинта; Наука, 2006.


Obrazli soʻzlarning bir turi boʻlmish taqlidlar tarjimasida vositaning tushirib qoldirilishi, boshqa mustaqil soʻz orqali berilishi yoki mazmunan nomutanosib boʻlgan tallidiy birlik orqali tarjima qilinishi mumkin. Tasviriy birliklar har bir tilda qator oʻziga xosliklarga ega. Masalan, oʻzbek tilida ushbu vositalar hajman qisqa, takroriy yoki juft shaklda boʻladi. Tasviriy soʻzlarning aksariyati lugʻaviy maʼnosi matn kontekstiga, oʻzi birikib kelayotgan soʻz maʼnosiga qarab oʻzgarib ketadi. Masalan, *jimir- jimir daryo mavjlanadi, yulduzlar jimir-jimir nur sochadi yoki butun avzoyim jimir-jimir etdi* kabi jumalardagi tasviriy birlik “*jimir-jimir*” har bir birikuvda tasvirlanmish lugʻaviy maʼnosiga bogʻliq holda butkul boshqa semalarni ifodalaydi. Lugʻaviy maʼnoning beqarorligi ushbu vositalar tarjimasida muammoga sabab boʻladi.

Oʻzbek tilidagi qator tasviriy birliklar rus tilida butkul boshqa soʻz turkumiga oid vositalar orqali ifodalanadi. Quyidagi obrazli soʻzlarning rus tilida aynan tasviriy birlik boʻlmasa-da sifatlar sirasida muqobillari mavjud.

| | |
|--------------------|-------------------------------------|
| Tasviriy soʻz | Muqobil tarjima |
| <i>vijir-vijir</i> | <i>мелкий(ая), бесчисленный(ая)</i> |
| <i>yalt-yult</i> | <i>сверкающий(ая)</i> |
| <i>jimir-jimir</i> | <i>рябящий(ая)</i> |
| <i>zir-zir</i> | <i>дрожащий(ая)</i> |
| <i>vij-vij</i> | <i>неясный(ая)</i> |

Rus tilida aksariyat obrazli soʻzlar taqlidiy xarakterga ega. Vositalar tovushga yoki shovqinga taqlidiy tarzda shakllangan. Tasviriy birliklar, yaʼni vizual kartinani tasvirlovchi tovushlar jamlanmasi esa oʻzbek tiliga nisbatan kamroq. Shu sababdan tarjimalarda ushbu vositalar tushirib qoldirilishi mumkin. Rus tilidan farqli oʻlaroq oʻzbek tilida holat va harakatni tasvirlovchi vositalar xilma-xil. Obrazli soʻzlar turkumidagi tasviriy birliklar bunga yaqqol misol boʻla oladi. Zero, rus tilida taqlidlar kuzatilgani holda, tasviriy birliklar nisbatan taqchil. Shunday ekan ushbu maydon elementlarining oʻzbek tilidan rus tiliga tarjima qilinishi murakkab masaladir.

Tasviriy soʻzlarning oʻzbek tilidan rus tiliga tarjimasida toʻrt asosiy muammo aniqlandi.



Obrazli soʻzlar tarjimasida bir necha tavsiyalar berish mumkin. Obrazli soʻzlar, shu jumladan, tasviriy birliklar tarjimasida moslashtirish metodidan foydalanish mumkin. Moslashuv deganda asliyatdagi soʻz lugʻaviy maʼnosidan maʼlum bir semaga suyangan holda aynan shu kichik maʼnoni ifodalovchi biror soʻzni tanlash nazarda tutiladi.¹¹ Bu metod mutaxassisdan matn

¹¹ Комиссаров В. Теория перевода (лингвистические аспекты). М.: Высшая школа, 1990. – С.125

kontekstiga tayanishni talab etgani holda, tarjima qilinayotgan vositaning ba'zi ma'nolari tushib qolishiga ko'z yumish kerak demakdir. Masalan: *Qirg'oqdan sal narida saf tortgan oq qutilar, ularning atrofida g'imir-simir qilib tik yurgan g'alati mavjudotlarni ko'rishdi.* (J.Ergasheva "Ajdarko'l").

Har bir usulning o'ziga xos ustunliklari bilan birga kamchiliklari ham mavjud.

| Tasviriy so'zlarni tarjima qilish usullari | |
|---|--|
| Moslashtirish | |
| <p>1. Matnda o'rinsiz transliteratsiyani bartaraf etadi.</p> <p>2. Matnning bir tilda, ravon bo'lishini ta'minlaydi.</p> <p>3. O'quvchi mutolaa davomida tasviriy soz mazmunini tushunish uchun qoshimcha manbaalar, iqtiboslarga murojaat etmaydi.</p> | <p>1. Tanlangan vositalar ya'ni rus tilidagi fe'l yoki sifatlar aslyatdagi tasviriy so'z ifoda ma'nosini to'liq akslantirmasligi mumkin.</p> |
| Umumlashtirish | |
| <p>1. Tasviriy ifoda vositalari ifoda vositalari, jumladan, aniqlovchilar ko'p bo'lgan, ot va fe'llar ma'nosi tarkibida ifoda semasi yaqqol ko'zga tashlangan matn parchasida tasviriy birliklar umumlashtirilgan holda tashlab ketishilishi mumkin. Sababi, uning ma'nosini yondosh vositalar ifodalab bera oladi.</p> | <p>1. Ushbu usul tasviriy ifoda vositalari faqat obrazli so'zlar bilan cheklangan matn tarjimasiga to'g'ri kelmaydi. Zero bunday holatda tasviriy so'zni tushirib qoldirish muhim ifoda ma'nosini e'tibordan chetda qoldirish bilan barobar, ya'ni matn emotivlik xususiyati pasayadi.</p> |
| Aniqlashtirish | |
| <p>1. Tasviriy sozni aslyat matnidagidek shalda saqlab qolish imkonini beradi.</p> <p>2. Qavs ichidagi yoki iqtibosdagi izoh ushbu so'zning barcha semalarini qamrab oladi.</p> | <p>1. Matnda rus tilida mavjud bo'lmagan so'zlar (transliteratsiya shaklidagi tasviriy birliklar) ortishi tarjimaning uslubiy ravonligiga putur etkazadi.</p> <p>1. Bir matnda qayta-qayta takrorlangan tasviriy so'zni aniqlashtirish vositasida, ya'ni izohini iqtibosda yoki qavs ichida takroran berish tarjima kommunikativ funksiyasuga salbiy ta'sir o'tkazadi.</p> |

Anglashiladiki, tasviriy so'zlarning o'zbek tilidan rus tiliga o'girilishida eng ma'qul tanlov moslashuv bo'lib, bunda tasviriy so'z ma'nosi rus tilidagi matnda sifat yoki fe'l vositasida ifodalanadi.

Ma'lumki, "tarjima birligi – matnning eng minimal bo'lagi, ya'ni minimal nutq bo'lagi bo'lib uning aslyat matnida mavjudligi tarjimada ham ayni shu

bo‘lakning paydo bo‘lishini muqarrar belgilab beradi”.¹² Biroq, badiiy tarjimada bunday mutlaq printsiplar bilan ish yuritish noo‘rin. Zero, ba‘zi nutq birliklari tarjima qilinayotgan tilda mavjud bo‘lmasligi, bu esa tilning qurilishi bilan bog‘liq ekanligi tasviriy birliklar misolida asoslandi. Shunday ekan, tasviriy so‘zlarni o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilishda ularni alohida tarjima birligi sifatida ko‘zdan kechirish, yoki aksincha rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinayotgan matnlarda tasviriy so‘zlardan foydalanish qarori bevosita tarjimon zimmasidagi tanlov bo‘lmog‘i lozim.

Dissertatsiyaning «O‘zbek va rus tilidagi tasviriy birliklarning leksikografik talqini» deb nomlangan 3-bobida o‘zbek va rus tili tasviriy birliklarning izohli, tarjima va o‘quv lug‘atlarda berilishi haqida so‘z boradi va ular misollar yordamida dalillanadi.

Lug‘atlar har bir tilning shu o‘ziga xos, unikal ontologik tabiatini leksik sath vositasida akslantiruvchi katta ahamiyatga ega, qimmatli manbadir.

Ma‘lumki, leksikografiya amaliy tilshunoslikning dastlabki yo‘nalishlaridan biri. Eng keng tarqalgan lug‘at turlaridan tarjima lug‘atlar bir madaniyat, etnik yoki ijtimoiy guruhga oid kishini boshqa madaniyat, mentalitet, dunyoqarash bilan tanishtirish, qiyoslash vazifasini bajaruvchi portaldir. Izohli lug‘atlarning amaliy qiymati esa ularning yanada kengroq ko‘lamdagi vazifalari vositasida asoslanadi – ular insoniyatning borliq haqidagi bilimlarini lisoniy vositalarda akslantiradi, borliq turli milliy tillarda qanday voqelanishi haqida ma‘lumot beradi.

Ma‘lumki, izohli lug‘atlar boshqa tur lugatlardan, jumladan, tarjima va o‘quv lug‘atlaridan batamom farq qiladi. Ushbu tur lug‘atlar tilning leksik sathini to‘liq qamrab olishi, undagi maqolalar nafaqat so‘z grammatik ko‘rsatkichlari va ma‘nolari, balki leksema shakllari, birikuv xususiyatlari, etimologik parametrlari haqida ham ma‘lumot berishi bilan qiymatlidir. Qolaversa, izohli lug‘atlar boshqa tur leksikografik ishlar uchun, xususan, tarjima, o‘quv va maxsus lug‘atlar uchun asos manba, tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.

Tasviriy birliklar lug‘atda taqlid so‘z, eski tasviriy so‘z sifatida tasniflangan. Biroq bunday klassifikatsiya barcha lug‘at maqolalarda kuzatilmaydi. Bu

YALTIROQ 1. Yalt-yalt qiladigan, shu darajada tiniq. *Yaltiroq shisha. Yaltiroq tanga. Yaltiroq narsa oltin bo‘lavermaydi.* Maqol. 2. ko‘chma Bo‘yoqli, bejama, yuzaki. U */Mashhadiy/ sultonlarni, beklarni puchak, lekin ko‘z qamashtirguvchi yaltiroq so‘zlar bilan madh etmoqqa mohir. Oybek.*”Navoiy”.

LOVULLAMOQ 1. Kuchli alanganmoq, alanga taratmoq. *Elmurod pechkada lovullab yonayotgan o‘tga tikildi.* P. Tursun. ”O‘qituvchi”. 2 ko‘chma *Qattiq qizimoq. Quyosh tik kelgan. Havo lovullab yonadi.* Oybek. ”Qutlug‘ qon”. 3. ko‘chma *Birdan qizishib ketmoq, tutaqmoq. Lutfiniso: “Voy, juvon o‘lgur!” deb labini tishladi. U shamol tekkan olovdek lovullab ketdi.* Oybek. ”Tanlangan asarlar”.¹³

¹²Комиссаров В. Слово о переводе – М.: Международные отношения, 1973. – С.188

¹³Bu haqida qarang : Мадвалиев А. тахрири остида Ўзбек тилининг изоҳли луғати – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006-2008

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan sifat va fe‘l turkumiga oid mustaqil leksemalarning sezilarli ulushi tasviriy birliklardan kelib chiqqan.

Tarjima lug‘atlari tuzilishi va tarkibiga ko‘ra izohli lug‘atlardan farq qiladi. Zero, zullisoniy leksikografiya mohiyatan boshqa maqsadni ko‘zda tutadi, uning vazifalari ham butkul boshqa.

Ushbu lug‘atlarda tasvir ma‘nosini ifodalay oluvchi leksemalar tarjimasini o‘rganib chiqish natijasida quyidagi lug‘at maqolalar misol sifatida tanlab olindi.

| Tasviriy birliklarning o‘zbekcha-ruscha lug‘atlardagi talqini |
|---|
| ALANG-JALANG разг. Недоумевающий, растерянный; ~bo‘lib qolmoq растеряться, опешить (от удивления, неожиданности или в поисках чего-л.) ko‘zlari bo‘ldi . |
| DIR-DIR: ~ titramoq,~ qaltiramoq сильно дрожать, дрожать как в лихорадке; трястись; трепетать. |
| JIMIR-JIMIR:~ qilmoq рябить; мерцать; suv beti ~ qiladi ~ поверхность воды покрыта рябью; osmonda yulduzlar ~ qilib turar edi на небе мерцали звёзды |
